INTRODUKSIYA SHAROITIDA DORIVOR VALERIANA (VALERIANA OFFICINALIS L.) NING SUV REJIMI, BIOKIMYOVIY TARKIBI VA ILDIZ HOSILDORLIGI

Xamrayev Rashid Ravshan o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

Omonova Dildora Uchqun qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy O'zbekistonning suv taqchil introduksiya sharoitida dorivor valeriana (*Valeriana officinalis* L.) o'simligining suv rejimi, biokimyoviy tarkibi, ildiz hosildorligi va xomashyoni quritish texnologiyasi tadqiq etilgan. Kuzgi va bahorgi muddatlarda ekilgan o'simliklarning transpiratsiya jadalligi, suv tanqisligi va suv saqlash qobiliyati vegetatsiya yillari hamda mavsumlari davomida qiyosiy tahlil qilingan. Kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarda suv rejimining barqarorligi va yer osti a'zolarida efir moyi (0,33–0,36%) hamda izovaleriana kislotasi (1,34–1,53%) miqdorining yuqori bo'lishi aniqlangan. Eng yuqori ildiz hosildorligi (290 g/tub) vegetativ organlardan substratda o'stirilgan variantda qayd etilgan. Shuningdek, mahsulot sifatini oshirish maqsadida regenerativ issiqlik utilizatorlariga ega yangi turdagi quyosh-yoqilg'ilik qurilmasida sun'iy quritishning afzalliklari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Valeriana officinalis* L., introduksiya, kuzgi va bahorgi ekish, tuproq namligi, transpiratsiya, efir moyi, izovaleriana kislotasi, biogumus, quyosh-yoqilg'ilik quritgich.

Abstract: This article investigates the water regime, biochemical composition, root yield, and raw material drying technology of *Valeriana officinalis* L. under water-scarce introduction conditions in Southern Uzbekistan. A comparative analysis of transpiration intensity, water deficit, and water-holding capacity of plants cultivated in autumn and spring was conducted across vegetation years and seasons. It was established that autumn-planted plants exhibited a more stable water regime and higher contents of essential oil (0.33–0.36%) and isovaleric acid (1.34–1.53%) in their underground organs. The highest root yield (290 g/plant) was recorded in the variant grown from vegetative organs on a substrate. Furthermore, to improve product quality, the advantages of artificial drying in a newly developed solar-fuel drying unit equipped with regenerative heat recuperators were scientifically substantiated.

Key words: *Valeriana officinalis* L., introduction, autumn and spring planting, soil moisture, transpiration, essential oil, isovaleric acid, biohumus, solar-fuel dryer.

Аннотация: В данной статье исследованы водный режим, биохимический состав, урожайность корней и технология сушки сырья валерианы лекарственной (*Valeriana officinalis* L.) в условиях дефицита воды при интродукции в Южном Узбекистане. Проведён сравнительный анализ интенсивности транспирации, дефицита воды и водоудерживающей способности растений осеннего и весеннего сроков посадки по годам вегетации и сезонам. Установлено, что у растений осеннего срока посадки водный режим более стабилен, а содержание эфирного масла (0,33–0,36%) и изовалериановой кислоты (1,34–1,53%) в подземных органах выше. Наивысшая урожайность корней (290 г/куст) зафиксирована в варианте выращивания из вегетативных органов на субстрате. Также с целью повышения качества сырья обоснованы преимущества искусственной сушки в разработанной гелио-топливной установке нового типа с регенеративными теплоутилизаторами.

Ключевые слова: *Valeriana officinalis* L., интродукция, осенняя и весенняя посадка, влажность почвы, транспирация, эфирное масло, изовалериановая кислота, биогумус, гелио-топливная сушилка.

KIRISH

O'z tadqiqotlarida O.V. Parshukova turli geografik hududlardan (Moskva VILAR, Sibir, Shimoliy Kavkaz zonasidagi tajriba stansiyasi, Saratov botanika bog'i, Simferopol va Sankt-Peterburg) keltirilgan *V. officinalis* urug'larini ekib, g'unchalash, gullash va urug'lash fazalarini kuzatgan. U gullash davomiyligiga ob-havoning



ta'sir etishini hamda gullarning asosiy qismi kunning birinchi yarmida ochilishini aniqlagan. Urug'lanish o'simlikning yoshiga bog'liq bo'lib, shimoldan keltirilgan urug' namunalaridan o'stirilgan o'simliklarda to'liq urug' hosil bo'lganligini kuzatgan. Janubiy Qozog'istonning tog' oldi hududlarida R.U. Mamikova tomonidan *V. officinalis* ning introduksiyasi, morfologiyasi va biologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tajribalar olib borilgan. *V. officinalis* ni bir yillik o'simliklar (no'xat, lyupin, suli, dorivor moychechak, arpa) bilan aralastirib ekish bo'yicha ilmiy izlanishlar I.D. Semenixin va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, qator orasi 60 sm bo'lganda har to'rtinchi qatorga dorivor valeriana ekilgan.

Bir yillik o'simliklar begona o'tlarning o'sishiga to'sqinlik qilgan va dorivor valeriananing uzoq vaqt davomida o'sib-rivojlanishini ta'minlagan. Bir yillik o'simliklar yig'ib olingandan keyin dorivor valeriana ekilgan qatorlar kultivatsiya qilinib, N30, P30, K30 normada o'g'it berilgan. No'xat, lyupin, suli, dorivor moychechak va arpa bilan aralash ekilgan *V. officinalis* ning hosildorlik ko'rsatkichlari yakka holda ekilgan o'simliklarga nisbatan yuqori bo'lib, bir tup o'simlik ildizining massasi 20 g (64,4%-84,2% va 47,65%) dan ko'p bo'lgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'simlik namliksevar bo'lib, asosan yer osti suvlari yaqin joylarda yaxshi o'sadi. Ammo namlik yetishmovchiligi o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Tuproq namligining aprel oyidan sentyabr oyigacha 50 sm chuqurlikdagi o'zgarishlari aniqlangan. Kuzgi muddatda ekilgan o'simliklar maydonida tuproq namligi mavsum va vegetatsiya yillari davomida bahorgi muddatda ekilgan o'simliklar maydoniga nisbatan yuqori bo'lganligi sababli yer osti a'zolarining o'sishi va rivojlanishi jadalroq kechganligi kuzatilgan. Bahorgi muddatda ekilgan o'simliklar maydonida vegetatsiyaning birinchi yilida tuproq namligining eng yuqori ko'rsatkichi aprel oyida (g'unchalash fazasida) qayd etilgan bo'lib, o'rtacha 16,4% ni tashkil etgan. Bu vaqtda poyaning bo'yi $27,7 \pm 1,7$ sm, ildizining uzunligi esa $8,6 \pm 1,4$ sm bo'lgan. Tuproq namligining eng past ko'rsatkichi iyul oyida (urug'lash fazasida) kuzatilib, o'rtacha 11,0% ni tashkil etgan. Bu davrda poyaning bo'yi $62,8 \pm 1,0$ sm, ildizning uzunligi esa $14,0 \pm 2,0$ sm bo'lgan. Ikkinchi vegetatsiya yilida tuproq namligining maksimal ko'rsatkichi aprel oyida o'rtacha 14,8% ga yetgan. Ildizining uzunligi $25,3 \pm 3,0$ sm bo'lib, minimal ko'rsatkich iyul oyida o'rtacha 12,9% ni tashkil etgan, ildiz uzunligi esa $27,0 \pm 2,9$ sm ga yetgan.

Kuzgi muddatda ekilgan o'simlik maydonida mavsum va vegetatsiya yillari davomida tuproq namligining yuqori bo'lishi sababli o'simlikning generativ davrga ertaroq kirishi kuzatilgan. Bundan tashqari, tuproq namligi barglarning paydo bo'lishiga, poyaning o'sishiga va ildizlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bahorgi muddatda ekilgan o'simliklar maydonida esa tuproq namligi kuzgi muddatda ekilgan o'simlik maydoniga nisbatan past bo'lgan sharoitda o'sganligi natijasida o'simlik ildizida ho'l va quruq massa to'planishida ham shu holat kuzatilgan. Iyul oylarida ildiz sistemasida ko'plab quruq massa yig'ilishi qayd etilgan. Bunga sabab har ikkala muddatda ekilgan o'simliklar maydonida tuproq namligining iyul oyiga kelib pasayib ketishi hamda havo va tuproq haroratining ko'tarilishi yoki asosiy poyalarning qurib qolishi bilan bog'liqdir. Dorivor valeriananing yer ustki va yer osti a'zolarining rivojlanishi ko'p jihatdan tuproq namligiga bog'liq bo'ladi. O'simlikning hayoti urug' unib chiqqandan boshlab rivojlanib, hosil bergunigacha va undan keyin ham tashqi muhit sharoitlariga bog'liq holda kechadi. Ana shu sharoitni ifodalovchi omillar orasida tuproq namligining roli va ahamiyati kattadir. Yorug'lik va namlik yetarli bo'lgan sharoitlarda har ikkala variantda ekilgan o'simliklar yaxshi o'sadi va to'liq rivojlanadi.

O'simlik issiqsevar o'simliklar qatoriga kirib, bizning sharoitimizda vegetatsiya davrini erta boshlaydi va mavsumiy rivojlanishning barcha fazalarini to'liq o'taydi. U tabiiy sharoitda yillik yog'in miqdori 900-1100 mm bo'lgan hududlarda o'sishiga qaramay, dorivor valeriana introduksiya sharoitida yoz oylarida yetarlicha sug'orib turilganda qurg'oqchilikka bema'lol bardosh beradi. Demak, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga maydondagi mikroiklimning ta'siri katta bo'lib, iqlim omillari kuzgi va bahorgi muddatlarda ekilgan o'simliklarda vegetatsiya davomida sezilarli darajada o'zgaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarning assimilyatsiyalovchi a'zolarida suv miqdorining kunlik o'rtacha yuqori qiymati birinchi vegetatsiya yilining aprel oyida 84,0 % ni, quyi qiymati iyul oyida 73,2 % ni ko'rsatdi. Bahorda ekilgan o'simliklarda esa kunlik o'rtacha yuqori qiymati aprel oyida 71,5 %, quyi qiymati iyul oyida 67,4 % ni tashkil etdi. Kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarda ikkinchi vegetatsiya yilida kunlik o'rtacha yuqori qiymati aprel oyida 86,3 % ni, quyi qiymati iyul oyida 75,3 % bo'lib, bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 73,7 % va 69,5 % ni tashkil etdi. Uchinchi vegetatsiya yilida esa kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarda maksimal qiymat aprel oyida 85,1 % ni, minimal qiymat iyul oyiga to'g'ri kelib, 74,2 % ni ko'rsatdi.

Suv miqdorining kunlik o'zgarib borishi aprel oyida yuqori nuqtasi soat 8:00 va 20:00 larda, pastki nuqtasi esa asosan soat 14:00 da qayd etildi. Kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarda mavsum davomida o'simlik barglari tarkibida 70-80 % oralig'ida suv zahiralari bo'lishi aniqlandi. Suv miqdori aprel oyida 7,0 %, keyingi oylarda esa 4,5-7,7 % gacha kamayib borishi kuzatildi. Bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda esa mavsum davomida o'simlik barglari tarkibida 64,0-81,6 % oralig'ida suv zahiralari borligi qayd etilib, o'simlik bargi tarkibidagi suv miqdori aprel oyida 8,8-11,3 % ga, sentyabr oyida esa 12,0-13,2 % gacha kamayib ketishi kuzatildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Suv tanqisligi. Kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarda birinchi vegetatsiya yilida suv tanqisligining kunlik o'rtacha qiymati mavsum davomida 6,5-17,8 % atrofida o'zgarib turishi ma'lum bo'ldi. Bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda esa o'rtacha qiymatning mavsum davomida 7,4-18,4 % ni tashkil etishi aniqlandi. Ikkinchi vegetatsiya yilining iyul oyida kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarda suv tanqisligining maksimal darajasi 30,3 %, minimal qiymati esa 4,1 % qayd etildi. Bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda bu ko'rsatkichlarning maksimal darajasi iyul oyida 31,6 % gacha, minimal qiymati esa aprel oyida 5,8 % ni tashkil etdi. Uchinchi vegetatsiya yilida kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarda mavsum davomida barglarning to'liq to'yinishiga nisbatan suv tanqisligi aprel oyida minimal 4,5 % ni tashkil etib, maksimal daraja iyul oyida 30,7 % ga yetdi. Shunga muvofiq, bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda aprel oyida quyi qiymat 5,9 % ni, yuqori qiymat esa iyul oyida 31,5 % ni tashkil etganligi qayd etildi.

Suv saqlash qobiliyati. Kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarda suv saqlash qobiliyati yuqori bo'lib, birinchi vegetatsiya yilida uning maksimal qiymati aprel oyida 79,2 % ni, minimal qiymati iyul oyida 42,8 % ni tashkil etdi. Ikkinchi vegetatsiya yilida esa maksimal darajasi 83,7 %, minimal qiymati 50,3 % ni tashkil etdi. Shunga muvofiq, uchinchi vegetatsiya yilining aprel oyida 80,4 %, iyul oyida esa 46,4 % ga yetdi. Suv saqlash qobiliyatining mavsumiy amplitudasi birinchi vegetatsiyada 36,4 %, ikkinchi vegetatsiyada 33,4 %, uchinchi vegetatsiya yilida esa 34,0 % ga teng bo'lib, bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda bu ko'rsatkichlar nisbatan past bo'lgan.


Kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarda transpiratsiya jadalligi birinchi vegetatsiya yilida mavsum davomida o'rtacha 417-636 mg/g·s ni tashkil etib, bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda mavsum davomida o'rtacha 358-454 mg/g·s ni ko'rsatdi. Birinchi vegetatsiya yilida har ikkala variantdagi o'simliklarda transpiratsiya jadalligining maksimal qiymati aprel-may oylariga to'g'ri kelib, minimal ko'rsatkich yoz oylarining o'rtasida kuzatildi. Ikkinchi va uchinchi vegetatsiya yillarida ham mazkur ko'rsatkichlarning yuqori qiymatlari bahor oylarida, quyi ko'rsatkichlari esa birinchi vegetatsiya yilidagidek yoz oylariga to'g'ri keldi. Kuzgi va bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda transpiratsiya jarayonining kunlik o'zgarishlari birinchi vegetatsiya yilida kuzatilganda, eng yuqori qiymati aprel oyining soat 12:00-14:00 oralig'iga to'g'ri kelib, 930-741 mg/g·s ni, quyi ko'rsatkich esa iyul oyining soat 16:00-18:00 oralig'ida 160-190 mg/g·s ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar ikkinchi vegetatsiya yilida kuzatilganda, transpiratsiya jadalligining kunlik o'zgarishlari maksimal qiymati aprel oyida 710-843 mg/g·s ni, minimal qiymati esa iyul oyida 260-302 mg/g·s ni tashkil etdi.

Uchinchi vegetatsiya yilida har ikkala variantda ekilgan o'simliklar transpiratsiya jadalligining kunlik o'zgarishlari tegishli holda 981-780 mg/g·s va 246-210 mg/g·s ekanligi aniqlandi. Bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda mazkur ko'rsatkichlarning kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarga nisbatan pastroq ekanligi kuzatildi. O'simlikning biokimyoviy tarkibi. Ildiz va ildizpoyasi tarkibida 0,5-2% efir moyi va sof holda izovalerian kislota bor. Valeriananing efir moyi asosan ingichka ildizlarda, izovalerian kislota esa yo'g'on va qari ildizpoyalarda ko'proq bo'ladi. Bu moy tarkibida izovalerian kislotasining borneol spirti bilan hosil qilgan murakkab efiri – bornil izovalerianat, shuningdek, borneolning sirka va chumoli kislotalari bilan hosil qilgan murakkab efirlari hamda terpineol, pinen, kamfen, azulen, sof holdagi borneol, izovalerian kislota va boshqa birikmalar bo'ladi.



борнилизовалерианат

Mahsulot tarkibida efir moyidan tashqari alkaloidlar, valerid glikozidi, oshlovchi moddalar, saponinlar, kislotalar va boshqa moddalar bo'ladi.



Ilmiy tajribalar sharoitida *V. officinalis* ning yer ustki va yer osti a'zolarining biokimyoviy tarkibi vegetatsiya yillari mobaynida kuzgi va bahorgi muddatlarda ekilgan o'simliklarda E. Abdunazarov tomonidan (2010-yil) aniqlangan. Analizlar natijalariga ko'ra, kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarning birinchi va ikkinchi vegetatsiya yillarida yer osti qismida efir moylarining miqdori 0,33-0,36%, izovalerian kislota 1,34-1,53% bo'lib, yer ustki qismida esa efir moylarining miqdori 0,25-0,30%, izovalerian kislota 0,78-1,18% ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarda kamligi aniqlangan. Jumladan, ildizida efir moyi 0,24-0,26%, izovalerian kislota 1,18-1,27% yoki yer ustki qismida efir moyi 0,23-0,25%, izovalerian kislota 0,71-0,84% ni tashkil etgan. Bunga sabab, kuzgi muddatda ekilgan o'simliklarning bahorgi muddatda ekilgan o'simliklarga nisbatan o'sishi va rivojlanishining tez hamda jadal kechishi bilan izohlanadi.

1-jadval: *Valeriana officinalis* ning biokimyoviy tarkibi 2025-yil

Ekish muddati	Vegetatsiya yillari	Yer ustki qismi		Yer ostki qismi	
		Efir moyi,%	Izovaleriana kislota,%	Efir moyi,%	Izovaleriana kislota,%
Kuzgi	1	0,2	0,78	0,33	1,34
	2	0,30	1,18	0,36	1,53
Bahorgi	1	0,23	0,7	0,24	1,18
	2	0,25	0,84	0,26	1,27

Dorivor valeriana o'simligining ildiz hosildorligi tajriba variantlari bo'yicha o'simlikning vegetativ davri tugagandan keyin (iyul oyining boshida) ildizlarni yig'ib olish va soya sharoitida quritish yo'li bilan aniqlandi. Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, dorivor valeriana sun'iy sharoitda birinchi yili o'stirilganda eng ko'p ildiz hosili tajribaning 4-variantida, ya'ni substratda vegetativ organlaridan o'stirilganda qayd qilindi. Bu variantda bir tup o'simlikdan olingan ildiz hosili 290 g ni (quruq massada) tashkil qildi. Tajribaning 2-variantida (biogumus eritmasida) va 5-variantida (substratda urug'dan ekib ko'chat tayyorlanganda) olingan ildiz hosili 277 g dan iborat bo'ldi. Eng kam ildiz hosili tajribaning 1-variantida (suvda o'stirilganda) va 3-variantida (mineral o'g'itlar eritmasida 22/5 l) kuzatilib, mos ravishda 207-215 g ni tashkil qildi. O'rganilgan tajribalar natijalariga asosanib xulosa qilish mumkinki, dorivor valeriana o'simligini vegetativ organlaridan ildiz chiqarib, substrat sharoitida o'stirish nisbatan yuqori ildiz massasi olishni (290 g/tup) ta'minladi.

Dorivor valeriana o'simligini quritish texnologiyasi. Ildizlari vegetatsiya yilining oxirida, o'simlik urug'lari pishib yetilgandan so'ng kovlab olinadi. Har gektar maydondan 15-20 s dan ildiz kovlab olinadi. Mahsulot tuproqdan tozalanib, maxsus idish yoki savatlarga solinadi va suvda yuviladi. Suvi silqib ketishi uchun biroz vaqt yerda qoldiriladi. Havo kirib turadigan joyda yoki quritgichda 35-40°C haroratda quritiladi. Valeriana o'simligining yer ustki qismlari (poya va barglari) maxsus qurilgan bostirma, shiypon yoki cherdaklarda quritiladi. Bu joylar toza va shamol o'tib turadigan bo'lishi kerak. Valeriana dorivor mahsulotlari maxsus ishlangan stellajlarga yupqa qilib yoyilib, soya joyda quritiladi. Quritish uchun sexga olib kelingan maydalangan ko'k massani quritishning ikki xil usuli mavjud: tabiiy yoki quyosh yordamida; sun'iy, maxsus quritgichlar yordamida.

Tabiiy quritishda tayyorlangan dorivor mahsulotlar boshqa o'simlik aralashmalari, loy, tuproq, qum va boshqa aralashmalardan tozalangandan so'ng tezda quritiladi. Quritishning eng oddiy va oson usuli tabiiy sharoitda, ya'ni ochiq havoda quritishdir. Lekin o'simliklarning yer ustki qismini (meva va urug'laridan tash-

qari) ochiq havoda, quyoshda quritish mumkin emas. Aks holda, o'simlikning yer ustki organlari hujayralaridagi yashil rang beruvchi xlorofill hamda gul qismlaridagi rang beruvchi pigmentlar parchalanib ketib, poya, barg va qisman gullari sarg'ayib qoladi (ko'pincha gullar rangsizlanadi).

Xlorofill pigmenti parchalanishi bilan birga o'simlik tarkibidagi boshqa kimyoviy birikmalar ham gidrolizlanishi mumkin. Shuning uchun odatda quyoshda faqat yer osti organlari, meva va urug'lar quritiladi. Sun'iy quritish. So'nggi yillarda dorivor o'simlik mahsulotlarini tabiiy usulda quritish bilan bir qatorda turli tipdagi quritgichlarda sun'iy quritish keng qo'llanilmoqda. Keyingi yillardagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dorivor o'simliklarni quritishda sun'iy quritishning imkoniyatlari kengdir. Sun'iy quritish jarayon vaqtining qisqarishiga, mahsulot sifati va sanitar holatining tabiiy quritishga nisbatan yuqori bo'lishiga olib keladi. Valeriana dorivor o'simligi maxsus quritgichlarda 40°C haroratda quritiladi. Quritish siklining davomiyligi bir necha soatga qisqaradi.

XULOSA

Mahsulotning sifati tabiiy quritishdagidan yuqori bo'ladi, quritish uchun talab qilinadigan maydon esa tabiiy quritishdagiga nisbatan ko'p marta kamayadi. Ishlab chiqarishning sanitar holati yaxshilanadi. Bu quritish davrini o'zgartirishga imkon beradi. Kech kuzda o'rilgan yoki uzilgan dorivor o'simliklardan ham sifatli quritilgan mahsulot olishni ta'minlaydi.

Tajribamizda sun'iy usulda quritish uchun quyosh-yoqilg'ilik quritgichidan foydalandik. Sun'iy quritishda yangi turdagi quyosh-yoqilg'ilik quritish qurilmalaridan foydalanildi. Quyosh-yoqilg'ilik quritgichlar samaradorligini oshirishning quyidagi prinsiplari ishlab chiqilganda, unda:

1. Issiqlik manbai quvvati rejimini rostdash hisobiga quritish agentining belgilangan haroratini ushlab turish;
2. Quyosh kollektorining nur yutuvchi paneli bilan quritish kamerasi tashqi devori funksiyasini birlashtirish orqali qayta ishlangan quritish agenti issiqligi regeneratsiyasini ta'minlash;
3. Quritish kamerasidan chiqadigan issiqlikdan samarali foydalanishni ta'minlovchi regenerativ issiqlik utilizatorlaridan foydalanish ko'zda tutilgan.
4. *V. officinalis* dala sharoitida ildiz va ildizpoyasi tarkibida 0,4-1,8 % efir moyi va izovalerian kislotasi saqlashi aniqlandi.
5. Valeriananing efir moyi ko'proq o'simlikning ingichka ildizlarida, izovalerian kislotasi esa dag'al va qattiq ildizpoyalarda ko'proq uchrashi kuzatildi.
6. Surxondaryo viloyatining janubiy hududlari sharoitida *V. officinalis* ning xom ashyo sifatida ildizpoyasidan dastlabki vegetatsiya davrida foydalanish uchun tayyorlash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aхмедов Э.Т. *Mandragora turcomanica* Mizg. ning Қизириқ тумани шароитидаги интродукцияси: Биол. фан. номзоди дис. – Тошкент: ЎЗР ФА “Ботаника” ИИЧМ, 2002. – 137 б.
2. Абдуназаров Э.Э. Тошкент воҳаси шароитида доривор валериана (*Valeriana officinalis*) ning интродукцияси ва биоэкологик хусусиятлари: Биол. фан. номзоди дис. – Тошкент: ЎЗР ФА “Ботаника” ИИЧМ, 2010. – 7 б.
3. Адекенов С.М. Современное состояние и перспективы производства отечественных фитопрепаратов и биотехнологической продукции для медицины // Фармация Казахстана. – Алматы, 2003. – № 2. – С. 21-22.
4. Андреев Г.Н. Об уровнях жизнестойкости интродуцентов // Ботанические исследования в Субарктике. Сб. науч. трудов Кольского ФАН СССР. – Петрозаводск, 1974. – С. 61-70.
5. Артюшенко З.Т., Федоров А.А. Атлас по описательной морфологии высших растений: Плод. – Л.: Наука, 1986. – 392 с.
6. Артюшенко З.Т., Федоров А.А. Атлас по описательной морфологии высших растений: Семья. – Л.: Наука, 1990. – 204 с.
7. Бабаханян М.А. Производство валерианы лекарственной в условиях открытой гидропоники // Сообщения института агрохимических проблем и гидропоники. – Ереван, 1979. – № 18. – С. 49-56.
8. Базилевская Н.А. Теории и методы интродукции растений. – М.: МГУ, 1964. – С. 129-132.
9. Бейдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительных сообществ. – Новосибирск: Наука, 1974. – 154 с.
10. Ходжаев К.Х., Холматов Х.Х. Культура лекарственных растений в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1965. – 86 с.
11. Хазанович Р.Л., Руссиян М.И., Гомолицкий П.А. Опыт культуры некоторых лекарственных растений в Ташкенте // Труды ботанического сада АН УзССР. – Ташкент, 1951. – Вып. 2. – С. 181-190.
12. Мурдахаев Ю.М. Интродукция лекарственных растений в Узбекистане: Автореф. дис. ... докт. биол. наук. – Ташкент: Институт ботаники АН РУз, 1992. – 42 с.
13. Қосимов А.И., Набиев М.М. Ботаникадан қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 11 б.
14. Флора СССР. – Л.: Наука, 1958. Т. 23. – С. 594-640.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.